XALQ DEPUTATLARI XONQA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-mart VII-9-30-12-175-K/25 Xonqa tumani

Xonqa tumanida Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi Qoraqalpogʻiston Respublikasi viloyatlar va tuman (shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha tuzilgan “Yoʻl xaritasi”ga muvofiq Xonqa tumanining maʼmuriy-hududiy chegaralarini belgilash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi №03/4.3-253-sonli Qoraqalpogʻiston Respublikasi viloyatlar va shahar (shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha tuzilgan “Yoʻl xaritasi”ning ijrosini hamda Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy-hududiy tuzulishi toʻgʻrisidagi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi nizom talablariga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan Xonqa tumanining chegara chizigʻi chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, taklif loyihasi ishlab chiqilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi №03/4.3-253-sonli “Yoʻl xaritasi”ning ijrosi yuzasidan viloyat va tuman (shahar) hokimlariga chegara chizigʻini belgilash boʻyicha tayyorlangan hujjatlarni qoʻshni tuman (shahar)lar bilan kelishish, tegishli xalq deputatlari Kengashlarida koʻrib chiqish va tasdiqlash choralarini koʻrish topshirigʻi berilgan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonuni hamda “Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 11-25-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Xonqa tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi №03/4.3-253-sonli Qoraqalpogʻiston Respublikasi viloyatlar va shahar (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha tuzilgan “Yoʻl xaritasi”ning ijrosini taminlash maqsadida, Xonqa tumanining ma’muriy-hududiy chegaralari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan tayyorlangan, Xonqa tumani maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻi chizmasi 1-ilovaga, Xonqa tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizigʻining tavsifi 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin hamda tasdigʻi xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashidan soʻralsin.

3. Xonqa tumani chegaralarini belgilash Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qarori bilan tasdiqlangandan soʻng, amalga oshirilishi inobatga olinsin.

4. Ushbu qaror Xonqa tumani hokimligining rasmiy veb saytida eʼlon qilinsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Xonqa tumani Kengashining doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

DAVLATOV
MURADBEK
SAPARBOYEVICH

Xalq deputatlari Xonqa tumani
Kengashining
2025-yil 17-martdagi
VII-9-30-12-175-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyati Xonqa tumanining chegara

T A V S I F I

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Urganch va Xonqa tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Amudaryo daryosi bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41° 35′ 18,766″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 48′ 6,762″).*

A dan B gacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlari bilan 1 – 9 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1–nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1653 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 34′ 53,202″, sharqiy uzunlik 60° 49′ 5,407″).*

2–nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 234 metr masofada dambaga o‘tadi va damba bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3102 metr, umumiy janubiy yo‘nalishda 905 metr, keyin dala tuproq yo‘li va damba bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 199 metr masofada ariqqa o‘tadi, so‘ng umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi 369 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 724 metr, so‘ngra umumiy janubiy yo‘nalishda 1672 metr masofani o‘tadi. Keyin dala tuproq yo‘li va damba bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 346 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 305 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 121 metr, keyin umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1278 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 213 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 31′ 39,549″, sharqiy uzunlik 60° 52′ 20,978″).*

3–nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan kanalga o‘tib kanal bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1052 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 131 metr masofani o‘tadi. So‘ngra dala tuproq yo‘li bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 624 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 195 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 1563 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariq, damba bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 880 metr masofani o‘tib, amudaryo daryosi bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 31′ 27,842″, sharqiy uzunlik 60° 55′ 2,487″).*

4–nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2576 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41°30′37,879″, sharqiy uzunlik 60° 56′ 15,479″).*

5–nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6213 metr masofada daryoning chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘og‘iga o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 28′ 18,515″, sharqiy uzunlik 60° 59′ 8,618″).*

6–nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1903 metr masofani o‘tib, ariqqa o‘tadi keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1552 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 27′ 59,310″, sharqiy uzunlik 61° 1′ 21,604″).*

7–nuqtadan chegara chizig‘i ariqni dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1594 metr masofada dambaga o‘tadi, keyin damba, dala tuproq yo‘li bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 688 metr masofani o‘tadi, so‘ng damba bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 812 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41°27′0,009″, sharqiy uzunlik 61°02′ 30,329″).*

8 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1634 metr masofada Amudaryo daryosini kesib o‘tib daryo qirg‘og‘iga o‘tadi va umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda daryo suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan

748 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 307 metr masofani o‘tib, qirg‘oqda joylashgan Qoraqalpog’iston Respublikasi, Bog’ot va Xonqa tumanlari chegarasi tutashgan joydagi 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 57,648″, sharqiy uzunlik 61° 2′ 5,353″).*

B dan D gacha Bog‘ot tumani yerlari bilan 9 – 28 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

9-nuqtadan chegara chizig‘i Amudaryo daryosi qirg‘og‘idan ariqga o‘tadi ariqning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 169 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 534 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 43,240″ sharqiy uzunlik 61° 1′ 47,629″).*

10-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 105 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 47 metr masofani o’tib, so’ng g’arbiy yo’nalishda 202 metr masofani o’tib, so’ngra umumiy janubiy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 413 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 32,631″ sharqiy uzunlik 61° 1′ 24,590″).*

11-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib, keyin g’arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofani o’tib, so’ng g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda 506 metr masofani o’tib, so’ngra g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 132 metr masofani o‘tib, avtomobil yo’li ko’prigidagi 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 27,378″ sharqiy uzunlik 61° 0′ 50,162″).*

12-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo’li ko’prigini kesib o’tish orqali zovurga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan umumiy g’arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2838 metr masofani o‘tib, avtomobil yo’li ko’prigidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 45,655″ sharqiy uzunlik 60° 58′ 50,934″).*

13-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1682 metr masofani o’tib, keyin umumiy g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 275 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 27,636″ sharqiy uzunlik 60° 57′ 32,344″).*

14-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 598 metr masofani o’tib, keyin umumiy g’arbiy yo’nalishda 1299 metr masofani o’tib, so’ng g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 969 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 14,903″ sharqiy uzunlik 60° 55′ 37,044″).*

15-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1046 metr masofani o’tib, keyin g’arbiy yo’nalishda 339 metr masofani o’tib, so’ng chekga o’tadi va chekning o’ng tomoni bilan umumiy g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 150 metr masofani o‘tib, Shovot kanalidagi 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 24′ 59,084″ sharqiy uzunlik 60° 54′ 37,648″).*

16-nuqtadan chegara chizig‘i Shovot kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3138 metr masofani o’tib, keyin avtomobil yo’li ko’prigiga o’tadi va avtomobil yo’lining shimol tomoni bilan janubiy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 119 metr masofani o‘tib, yo’l bo’yidagi 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 35,289″ sharqiy uzunlik 60° 55′ 52,843″).*

17-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo’lining shimol tomoni bilan janubiy-g’arbiy yo’nalishda 399 metr masofani o’tib, keyin Polvon-G’azavot kanaliga o’tadi va kanalning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan umumiy g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1999 metr masofani o‘tib, kanal bo’yidagi 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 32,204″ sharqiy uzunlik 60° 54′ 18,486″).*

18-nuqtadan chegara chizig‘i Polvon-G’azavot kanalidan dala tuproq yo’liga o’tadi va yo’lning g’arb tomoni bilan janubiy yo’nalishda 40 metr masofani o’tib, keyin Yangiariq kanaliga o’tadi va kanalning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 1191 metr masofani o’tib, so’ng Yangiariq kanali va Nukusyop kanalini kesib o’tish orqali g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda 53 metr masofani o‘tib, kanal bo’yidagi 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 38,968″ sharqiy uzunlik 60° 53′ 28,080″).*

19-nuqtadan chegara chizig‘i Nukusyop kanalidan zovurga o’tadi va kanalning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda 364 metr masofani o’tib, keyin g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 127 metr masofani o’tib, so’ng janubiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 47 metr masofani o‘tib, temir yo’l bo’yidagi

20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 28,416″ sharqiy uzunlik 60° 53′ 16,832″).*

20-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo’lning shimol tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 627 metr masofani o‘tib, keyin temir yo’lni kesib o’tish orqali Qurilish kanaliga o’tadi va kanalning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan shimol janubiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda 174 metr masofani o’tib, kanal bo’yidagi 21-nuqtaga tutashadi

21-nuqtadan chegara chizig‘i g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 748 metr masofada dala yo’lini kesib o‘tib, yo’l bo’yidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 30,131″ sharqiy uzunlik 60° 52′ 17,606″).*

22-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo’lidan Qurilish kanaliga o’tadi va kanalning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy yo’nalishda 436 metr masofani o’tib, keyin g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda 580 metr metr masofani o’tib, so’ng Ablko’l zovuriga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan yo’nalishini o’zgartirmagan holda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 612 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 10,710″ sharqiy uzunlik 60° 51′ 15,237″).*

23-nuqtadan chegara chizig‘i Ablko’l zovurining suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan umumiy g’arbiy yo’nalishda 2987 metr masofani o’tib, keyin g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 519 metr masofada 4R156 avtomobil yo’lini kesib o‘tib, yo’l bo’yidagi 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 10,077″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 47,754″).*

24-nuqtadan chegara chizig‘i 4R156 avtomobil yo’lidan Ablko’l zovuriga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1970 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 55,251″ sharqiy uzunlik 60° 47′ 48,308″).*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Ablko’l zovurining suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan umumiy g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1788 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 37,738″ sharqiy uzunlik 60° 46′ 35,784″).*

26-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan janubiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 893 metr

masofani o‘tib, zovur burilishidagi 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23' 9,439" sharqiy uzunlik 60° 46' 31,577").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda 313 metr masofani o’tib, keyin g’arbiy yo’nalishda 1548 metr masofani o’tib, so’ng g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 275 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi Xonqa, Bog’ot va Yangiariq tumanlari chegarasi tutashgan joydagi 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23' 10,067" sharqiy uzunlik 60° 45' 1,462").*

D dan E gacha Yangiariq tumani yerlari bilan 28 – 38 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

28-nuqtadan chegara chizig‘i Imorat zovurining suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy 490 metr masofani o’tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 51 metr masofani o’tib, so’ng Imorat va dala tuproq yo’lini kesib o’tish orqali ariqga o’tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan 602 metr masofani o’tib, so’ngra Olg’a kanaliga o’tadi va kanalning suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan umumiy shimoliy yo’nalishda 1571 metr masofani o’tib, keyin shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 53 metr masofada Qo‘riqtom kanalini kesib o’tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 659 metr masofani o‘tib, kanal burilishidagi 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 24' 46,459" sharqiy uzunlik 60° 44' 32,801").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i Qo’riqtom kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 443 metr masofani o‘tib, keyin zovurga o‘tadi va shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 370 metr masofada dala tuproq yo‘lini va Yangiariq-arna kanali kesib o‘tib, kanal bo’yidagi 30-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 25' 3,396" sharqiy uzunlik 60° 44' 47,276").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i Yangiariq-arna kanalining suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo‘nalishda 1385 metr masofani o‘tib, keyin g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2902 metr masofani o‘tib, so’ng g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo‘nalishda 347 metr masofani o‘tib, so’ngra dala tuproq yo’liga o’tadi va yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 50 metr masofani o’tib, yo’l burilishidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 24' 55,291" sharqiy uzunlik 60° 41' 30,727").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 366 metr masofani o’tib, keyin Navro‘z zovuriga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 337 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 9,986″ sharqiy uzunlik 60° 41′ 26,731″).*

32-nuqtadan chegara chizig‘i Navro‘z zovurini kesib o’tish orqali ariqga o’tadi va ariqning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 565 metr masofani o’tib, keyin chekga o‘tadi va chekning chap tomoni bilan yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 127 metr masofani o‘tib, so’ng zovurga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan g’arbiy yo‘nalishda 452 metr masofani o‘tib, so’ngra g’arbiy-janubiy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 306 metr masofani o‘tib, Jirmizko‘l zovuridagi 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 29,069″ sharqiy uzunlik 60° 41′ 7,753″).*

33-nuqtadan chegara chizig‘i Jirmizko‘l zovurining suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan umumiy g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3474 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 18,119″ sharqiy uzunlik 60° 38′ 39,554″).*

34-nuqtadan chegara chizig‘i Jirmizko‘l zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 2527 metr masofani o‘tib, keyin g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 417 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 39,453″ sharqiy uzunlik 60° 36′ 38,716″).*

35-nuqtadan chegara chizig‘i Jirmizko‘l zovurining suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-g’arbiy yo‘nalishda 448 metr masofani o‘tib, keyin g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 661 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′ 38,265″ sharqiy uzunlik 60° 35′ 56,284″).*

36-nuqtadan chegara chizig‘i Jirmizko‘l zovurining suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 1291 metr masofani o’tib, keyin zovurni kesib o’tish orqali Polvon zovuriga o’tadi va zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 450 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 26′ 7,107″ sharqiy uzunlik 60° 35′ 4,435″).*

37-nuqtadan chegara chizig‘i Polvon zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 476 metr masofani o’tib, keyin zovurga o’tish orqali shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 836 metr masofada ariq, dala tuproq yo’li va Beruniy zovurini kesib o‘tib, zovur bo’yidagi Xiva, Xonqa va Yangiariq tumanlari chegarasi tutashgan joydagi 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 26′ 32,692″ sharqiy uzunlik 60° 35′ 2,613″).*

E dan F gacha Xiva tumani yerlari bilan 38 – 43 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

38-nuqtadan chegara chizig‘i Beruniy zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1150 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 581 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 39-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 27′ 9,526″ sharqiy uzunlik 60° 35′ 56,142″).*

39-nuqtadan chegara chizig‘i Beruniy zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 105 metr masofani o‘tib, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 974 metr masofada chekga o’tib, so’ng chekning o’ng tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 113 metr masofada avtomobil yo’liga o’tib, yo’l bo’yidagi 40-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 27′ 31,485″ sharqiy uzunlik 60° 36′ 26,902″).*

40-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1595 metr masofani o’tib, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 833 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 41-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 27′ 41,058″ sharqiy uzunlik 60° 38′ 6,153″).*

41-nuqtadan chegara to’g’ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 101 metr masofada Polvon kanalini kesib o‘tib, keyin ariqga o‘tadi va ariqning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan umumiy shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 693 metr masofada Xonqa zovurini kesib o‘tib, zovur bo’yidagi 42-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 28′ 0,932″ sharqiy uzunlik 60° 37′ 51,058″).*

42-nuqtadan chegara chizig‘i Xonqa zovurning suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 982 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan

holda 1255 metr masofani o‘tib, G‘azavot zovuridagi Xiva, Urganch va Xonqa tumanlari chegarasi tutashgan joydagi 43-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 28′ 59,891″ sharqiy uzunlik 60° 36′ 58,776″).*

F dan A gacha Urganch tumani yerlari bilan 43 – 1 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

43-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda G‘azavot zovurining 25 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 761 metr masofani o‘tib, so’ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 955 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 44-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 28′ 56,252″ sharqiy uzunlik 60° 38′ 10,874″).*

44-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda G‘azavot zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 299 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 340 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 371 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 45-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 29′ 12,888″ sharqiy uzunlik 60° 38′ 46,078″).*

45-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda G‘azavot zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1896 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 46-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 29′ 40,528″ sharqiy uzunlik 60° 39′ 57,839″).*

46-nuqtadan chegara chizig‘i G‘azavot zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 1222 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo’lini kesib o’tish orqali zovurga otadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1073 metr masofani o’tib, zovur burilishidagi 47-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 29′ 35,534″ sharqiy uzunlik 60° 41′ 32,201″).*

47-nuqtadan chegara chizig‘i G‘azavot zovuridan zovurga o’tish orqali zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo’nalishda 698 metr masofani o’tib, keyin avtomobil yo’lini kesib o’tish orqali zovurga o’tadi va yo’nalishini o’zgatirmagan holda 793 metr masofani o’tib, so’ng temir yo’lini kesib o’tish orqali zovurga o’tadi va yo’nalishini o’zgatirmagan holda 897 metr masofani o’tib, so’ngra Chandiryop kanaliga o’tadi va yo’nalishini o’zgatirmagan holda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini

hisobga olgan holda 2387 metr masofani o’tib, kanal burilishidagi 48-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 30′ 49,893″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 14,674″).*

48-nuqtadan chegara chizig‘i Chandiryop kanalining suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 137 metr masofani o’tib, keyin kanalni kesib o’tish orqali chekga o’tadi va chekning chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo’nalishda 31 metr masofada Qulovot kanaliga o’tib, so’ng kanalning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 14 metr masofani o’tib, so’ngra kanalni, dala tuproq yo’lini va Shovot kanalini kesib o’tish orqali 166 metr masofani o’tib, kanal bo’yidagi 49-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 30′ 58,177″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 15,127″).*

49-nuqtadan chegara chizig‘i Shovot kanalining suv oqimi bo’ylab o’ng tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3617 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi 50-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 24,828″ sharqiy uzunlik 60° 41′ 31,830″).*

50-nuqtadan chegara chizig‘i Shovot kanalidan Qaysar zovuriga o’tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 145 metr masofani o’tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda 71 metr masofani o’tib, so’ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1056 metr masofani o’tib, zovur burilishdagi 51-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 36,949″ sharqiy uzunlik 60° 42′ 20,641″).*

51-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Qaysar zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1422 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi 52-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 30,850″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 21,627″).*

52-nuqtadan chegara chizig‘i Qaysar zovurini kesib o’tish orqali dala tuproq yo’liga o’tadi va yo’lning sharq tomoni bilan janubiy yo’nalishda 298 metr masofani o’tib, yo’lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 701 metr masofada avtomobil yo’lini kesib o’tib, yo’l bo’yidagi 53-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 11,838″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 48,850″).*

53-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo’lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 324 metr masofada Qabriston devoriga o’tib, keyin devor bo’ylab g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 143 metr masofani o’tib, devor burilishidagi

54-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 23,498″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 49,945″).*

54-nuqtadan chegara chizig‘i Qabriston devori bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 84 metr masofani o’tib, keyin sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 210 metr masofani o’tib, devor burilishidagi 55-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 26,200″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 59,836″).*

55-nuqtadan chegara chizig‘i Qabriston devoridan dala tuproq yo’lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo’nalishda 218 metr masofani o’tib, keyin yo’lning sharq tomoni bilan shimoliy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 82 metr masofada Qaysar zovuriga o’tib, zovur bo’yidagi 56-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 33,948″ sharqiy uzunlik 60° 44′ 6,407″).*

56-nuqtadan chegara chizig‘i Qaysar zovurining suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 310 metr masofani o’tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 247 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 57-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 35,710″ sharqiy uzunlik 60° 44′ 27,209″).*

57-nuqtadan chegara chizig‘i Qaysar zovurini kesib otish orqali Paxtakor zovuriga o’tadi va zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 1098 metr masofada Toshsaqa zovurini kesib o’tib, keyin zovurning sharqiy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 949 metr masofani o’tib, so’ng dala tuproq yo’lini kesib o’tish orqali zovurga o’tadi va sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1922 metr masofani o’tib, zovur bo’yidagi 58-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 59,034″ sharqiy uzunlik 60° 47′ 14,522″).*

58-nuqtadan chegara chizig‘i Paxtakor zovurni kesib o‘tish orqali zovurning suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 649 metr masofani o‘tib, zovur burilishidagi 59-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 32′ 58,569″ sharqiy uzunlik 60° 47′ 41,331″).*

59-nuqtadan chegara chizig‘i Paxtakor zovurining suv oqimiga qarshi o’ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda 368 metr masofada dala tuproq yo’li va Qaysar kanalini kesib o’tib, Paxtakor zovuriga o’tadi zovurning chap tomoni bilan sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 400 metr masofani o’tib, zovur burilishidagi 60-nuqtaga tutashadi

60-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda Paxtakor zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 316 metr masofada avtomobil yo’liga o’tib, keyin yo’lning g’arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 82 metr masofani o’tib, avtomobil yo’lidagi 61-nuqtaga tutashadi

61-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan chekga o’tadi va chekning o’ng tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 65 metr masofani o’tib, keyin umumiy shimoliy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 171 metr masofani o‘tib, so’ng sharqiy yo’nalishda 122 metr masofada avtomobil yo’liga o’tib, so’ngra yo’lning g’arb tomoni bilan shimoliy yo’nalishda 291 metr masofada Urganch-arna kanalini kesib o’tib, kanal bo‘yidagi 62-nuqtaga tutashadi

62-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda Urganch-arna kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 525 metr masofani o’tib, keyin dala tuproq yo’liga o’tadi va yo’lning g’arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 93 metr masofani o’tib, so’ng devorga o’tadi va devor bo’ylab yo’nalishini o’zgartirmagan holda 344 metr masofani o’tib, so’ngra shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 277 metr masofani o’tib, keyin chekga o’tadi va chekning o’ng tomoni bilan umumiy shimoliy yo’nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 407 metr masofada avtomobil yo’lini kesib o’tib, so’ng yo’lining shimol tomoni bilan shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 371 metr masofani o’tib, so’ngra zovurni kesib o’tish orqali zovurga o’tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 110 metr masofani o’tib, so’ngra shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 68 metr masofani o’tib, zovur burilishidagi 63-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 33′ 32,225″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 31,813″).*

63-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 196 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimmoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 410 metr masofani o’tib, so’ng shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 103 metr masofani o’tib, zovur burilishidagi 64-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 33′ 48,765″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 24,527″).*

64-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 81 metr masofani o’tib, keyin g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda 27 metr masofani o’tib, so’ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 35 metr masofada Daryolik-arna kanaliga o’tib, so’ngra kanalning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan g’arbiy-shimoliy-g’arbiy

yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 307 metr masofani o’tib, kanal bo’yidagi 65-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 33′ 55,949″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 12,980″).*

65-nuqtadan chegara chizig‘i Daryolik-arna kanalini kesib o’tish orqali tekislikga o’tadi va tekislik bo’ylab shimoliy yo’nalishda 247 metr masofani o’tib, keyin Oktabr-arna zovuriga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan yo’nalishini o’zagartirmagan holda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 764 metr masofani o’tib, zovur burilishidagi 66-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 34′ 28,626″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 13,371″).*

66-nuqtadan chegara chizig‘i Oktabr-arna zovurining suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan umumiy g’arbiy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 850 metr masofani o‘tib, zovur bo’yidagi 67-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 34′ 40,848″ sharqiy uzunlik 60° 47′ 41,695″).*


67-nuqtadan chegara chizig‘i Oktabr-arna zovurini va dala tuproq yo’lini kesib o’tish orqali zovurga o’tadi va zovurning suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo’nalishda 171 metr masofani o’tib, keyin ko’l o’tadi va ko’l qorg’og’idan shimoliy-shimoliy-g’arbiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 260 metr masofani o’tib, ko’l qirg’og’idagi 68-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 34′ 52,833″ sharqiy uzunlik 60° 47′ 40,362″).*

68-nuqtadan chegara chizig‘i ko‘l qirg‘og‘idan shimoliy-sharqiy yo’nalishda 68 metr masofani o’tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 115 metr masofani o’tib, ko’l qirg’og’idagi 69-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 34′ 52,364″ sharqiy uzunlik 60° 47′ 46,863″).*

69-nuqtadan chegara chizig‘i ko‘l qirg‘og‘idan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 155 metr masofada zovurga o’tib, keyin suv oqimi bo’ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 259 metr masofani o’tib, so’ng shimoliy yo’nalishda 64 metr masofani o’tib, so’ngra shimoliy-sharqiy yo’nalishda 224 metr masofani o’tib, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 166 metr masofani o’tib, keyin chekga o’tadi va chekning chap tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo’nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 114 metr masofani o’tib, chek bo’yidagi boshlang’ich 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 35′ 18,766″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 6,762″).*

Xalq deputatlari Xonqa tumani Kengashining
2025-yil 17-martdagi
VII-9-30-12-175-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Xorazm viloyati Xonqa tumanining chegara CHIZMASI



Shartli belgilar

Xonqa tumanining chegarasi va yer maydoni

1 *Xonqa tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami*